



XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyatida qurilish ishlari

2022-YIL

2022- yil yanvar-noyabr oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar- noyabr oylariga Xorazm viloyatida jami 4220,5 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu — o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **421,0** mlrd so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar- noyabr oylariga nisbatan **79,4 %** ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **0,8 %** punktga ko‘paydi va **10,0 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **34,4 %** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **46,5 %**), Hazorasp tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **16,4 %** yoki 2021- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **11,0 marta**) va Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,6 %** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **90,6 %**) hissasiga to‘g’ri

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022- yilning yanvar- noyabriga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,5 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yilning yanvar- noyabriga oylaridagi ko‘rsatkichiga nisbatan 0,8 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ni tashkil etgan holda 2132,8 mlrd so‘m miqdorida bajarildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi % da


51,3
2021- yil
yanvar- noyabr

50,5
2022- yil
yanvar- noyabr




Ma‘lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Urganch shahri (573,1 mlrd so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 109,9 %) va Xiva tumaniga (245,5 mlrd so‘m yoki 90,5 %) to‘g‘ri keldi.

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **233,7** mlrd soʻmlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3986,8** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,5 %** va **94,5 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2022- yilning yanvar-noyabr oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd so'm	ulushi % da	mlrd so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	4220,5	233,7	5,5	3986,8	94,5
Urganch sh.	883,7	62,9	7,1	820,8	92,9
Xiva sh.	282,6	19,8	7,0	262,8	93,0
tumanlar:					
Bog'ot	232,1	0,0	0,0	232,1	100,0
Gurlan	254,7	20,5	8,0	234,2	92,0
Qo'shko'pir	300,1	20,1	6,7	280,0	93,3
Urganch	380,8	0,0	0,0	380,8	100,0
Hazorasp	306,5	19,3	6,3	287,2	93,7
Tuproqqa'l'a	154,2	23,5	15,2	130,7	84,8
Xonqa	357,4	15,2	4,2	342,2	95,8
Xiva	389,3	0,0	0,0	389,3	100,0
Shovot	227,5	21,5	9,5	206,0	90,5
Yangiariq	217,6	20,2	9,3	197,4	90,7
Yangibozor	234,0	10,7	4,6	223,3	95,4



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar- noyabr oylari**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **78,8 %** yoki **4220,5** mlrd so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.


Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **364,1** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **86,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1401,2** mlrd so'mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **65,7 %** ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1560,0** mlrd so'mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **93,6 %** ni tashkil etdi.



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari




Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar- noyabr oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	4220,5	3002,4	1031,9	186,2
Urganch sh.	883,7	527,4	305,8	50,5
Xiva sh.	282,6	155,2	125,4	2,0
tumanlar:				
Bog'ot	232,1	170,2	53,4	8,5
Gurlan	254,7	195,4	26,7	32,6
Qo'shko'pir	300,1	221,8	74,7	3,6
Urganch	380,8	263,4	80,0	37,4
Hazorasp	306,5	260,5	38,9	7,1
Tuproqqa'l'a	154,2	105,3	45,1	3,8
Xonqa	357,4	253,4	91,6	12,4
Xiva	389,3	296,0	82,2	11,1
Shovot	227,5	194,5	23,1	9,9
Yangiariq	217,6	188,0	27,3	2,3
Yangibozor	234,0	171,3	57,7	5,0

2022- yilning yanvar- noyabr oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22